


Maktabgacha ta'lim muassasasi (MTM) – bu uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalash, o'qitish, nazorat qilish, parvarish qilish va sog'lomlashtirishni ta'minlaydigan ta'lim muassasasi turi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim muassasasi tizimini uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida, 2017-2021 yillarda ta'lim o'quv jarayonini maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha dastur qabul qilindi.

2018 yil 1 yanvar holatiga ko'ra respublikamizda 5186 ta maktabgacha ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, ularning soni o'tgan yilga nisbatan 48 taga oshdi. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi guruhlar soni ham 2018 yilning 1 yanvar holatiga o'tgan yildagi 29425 dan 32087 taga (2662 guruhga) oshgan. Joylar soni 733863 tani tashkil etgan (o'tgan yilga nisbatan 1,7 foizga o'sgan).

1 - rasm

2018 yil 1 yanvar holatiga viloyatlar kesimida maktabgacha ta'lim muassasalari.



Jami maktabgacha ta'lim muassasalarining 60,5 foizini shahar joylardagi, 39,5 foizini qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etadi. Jami guruhlarning 69,2 foizi shahar joylardagi, 31,4 foizi qishloq joylardagi guruhlardan iborat bo'ldi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi o'rinlar jamiga nisbatan mos ravishda shahar joylarda 68,6 foizni, qishloq joylarda 31,4 foizini tashkil etdi.

2 - rasm

2018 yil 1 yanvar holatiga shahar va qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalari.




2017 yilda maktabgacha ta'lim muassasalaridagi jami bolalar soni 732852 nafarni (o'tgan yilga nisbatan 41877 taga o'sgan), ularning 52,2 foizini o'g'il bolalar, mos ravishda 47,8 foizini qiz bolalar tashkil etadi

Tarbiyalanuvchilarning yosh toifalari bo'yicha 2 yoshgacha bolalar soni 27528, 3 yoshdagi bolalar 145349, 4 yoshdagi bolalar 161464, 5 yoshdagi bolalar 168930, 6 yoshdagi bolalar – 171677 nafarni, 7 yoshdagi bolalar esa – 57904 nafarni tashkil etadi.

3 - rasm

2018 yil 1 yanvar holatiga viloyatlar kesimida maktabgacha ta'lim muassasasidagi bolalar soni.



Yuqorida qayd etib o'tilganidek, respublikada maktabgacha ta'lim muassasalari soni 5186 tani tashkil etadi, ulardan umumiy turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari 4990 ta yoki jamiga nisbatan 96,2 foizni, nutqida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalari 62 ta yoki jamiga nisbatan 1,2 foizni, eshitishida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalari 4 ta yoki jamiga nisbatan 0,07 foizni, ko'rishida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalari 7 ta yoki jamiga nisbatan 0,1 foizni, psixik nuqsonli (psixik rivojlanishining orqada qolishi, psixik-nutqiy rivojlanishining orqada qolishi, bolalar autizimi) bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalari 18 ta yoki jamiga nisbatan 0,3 foizni, aqliy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalari 5 ta yoki jamiga nisbatan 0,09 foizni, tayanch-xarakterlanish apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalari 16 ta yoki jamiga nisbatan 0,3 foizni, ko'p ixtisosli maktabgacha ta'lim muassasalari 60 ta yoki jamiga nisbatan 1,2 foizni, sanatoriy turdagi (zayif, turli yuqumli kasalliklarni boshdan kechirgan, surunkali asoratlarga ega bo'lgan bolalar uchun) maktabgacha ta'lim muassasalari 24 ta yoki jamiga nisbatan 0,5 foizni tashkil etadi.

2018 yil 1 yanvar holatiga turlari bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalari soni.



2018 yilning 1 yanvar holatiga maktabgacha ta'lim muassasalaridagi pedagog xodimlar soni jami 63259 kishini, ulardan ayollar – 61174 kishini tashkil etadi. Jami pedagog xodimlarning 13467 nafarini oliy ma'lumotli, 49419 nafarini o'rta maxsus (shu jumladan pedagogik – 48632 kishi) ma'lumotga ega bo'lganlar tashkil etadi.

5 – rasm

2018 yil 1 yanvar holatiga maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari.

